JIZZAX VILOYATI G’ALLAOROL TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 11 - mart 112-3-45-Q/22 G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tuman hokimining 2021 yil 23 dekabrdagi 181-3-0-Q/22-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 07-iyundagi “Bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 469-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim maktablariga hududlarni (mikrohudud) biriktirish maqsadida qabul qilingan G‘allaorol tuman hokimining 2021 yil 23 dekabrdagi 181-3-0-Q/22-sonli qarorini nomlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6, 25 modalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. G‘allaorol tuman hokimining 2021 yil 23 dekabrdagi 181-3-0-Q/22-sonli qarori nomi “G‘allaorol tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli umumta’lim maktablariga maktab yoshidagi bolalarni mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida” deb nomlanishi belgilansin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari G‘.To‘ychiev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Ж.Оқбоев**